

YOSHLARDA KREATIV FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK USULLARI

Qoryog'diyeva Baxshanda Ergashevna

Buxoro viloyati Jondor tumani

35- maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Agar o'quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish jarayonida ularda ilhom uyg'otish muammosini hal qila olsak, oldimizga qo'yilgan maqsadning yarmiga yetgan bo'lar edik. Bu vazifani bajarish uchun ham ongostiga murojaat qilishimiz va u bilan ishlashimiz kerak bo'ladi. Psixologiya fanlarida kreativlik voqeylikni o'ziga xos aks ettirishga, kishining olam haqidagi boy tasavvurlarga egaligini ifoda etuvchi tafakkur uslubi sifatida baholanadi. O'z ichki olamini bilish, tushunish, his qilish xususiyati ko'pchilikka xosdir.

Kalit so'zlar: Intellekt, kreativlik, ijodiy, kreativ fikrlash, qobiliyat, zehn, bilish jarayonlari, psixik xususiyat, divergent tafakkur, konvergent tafakkur.

KIRISH

Innovatsion ta'lim muhitining shakllanishi o'quvchi shaxsinining intellektini rivojlantirish inson kapitalidan samarali foydalanishning asosi ekanligini tasdiqlamoqda. Bugungi kunda inson kapitalidan samarali foydalanish jamiyat rivojiini ta'minlashi barchaga ma'lim. Bu borada jahon miqyosida shaxs intellektini rivojlantirish, unda tanqidiy, ijodiy va kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish ehtiyoji tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2021 yildan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchi yoshlarini o'qish, matematik tabiiy-ilmiy va kompyuter savodxonligi kabi yo'nalishlar bo'yicha baholash imkonini beradigan. PISA (Programme for International Student Assessment; O'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash bo'yicha Xalqaro dastur)ning kreativlik mezoni bilan boyitilayotganligi dolzarb ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat beradi.

Inson shaxsi kreativligi, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish muammosi turli o'nalishlarda o'rganilgan. Bu muammolarni Torrens, Dj.Gilford, Adrean Xill, Z. Freyd, C. Jung, A. Maslou Ed. Karvasarskiy B.D., A.I. Koptin, Rudestan K, Maklakov A.G, pedagog olimlardan Xasanboyev J., To'raqulov X., Gaydarov M., Xasanboyeva O, Usmanov N. kabilar o'rgangan. Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo'sh, o'qituvchilar o'zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o'rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: "Agarchi o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ

bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir” . Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala 19 yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlik xususiyatlarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda umumtra’lim maktab o‘quvchilari muammo yechimning bir necha variantini izlaydi. Xar tomonlama fikrlash, keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi eng to‘g‘ri yechimda to‘xtalishi tabiiy. O‘quvchi shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘quvchi shaxsini yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi. Evropa mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o‘qituvchilar ham o‘zlarida kreativlik sifatleri mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P.Torrens tomonidan 1987 yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o‘tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (orginal)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini yaratadi. O‘quvchi tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynanmana shu to‘rtta mezonni qanoatlantirishi kerak. E.P.Torrens fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;

- farazni tekshirish va o‘zgartirish;

- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;

- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlik Ijodkorlikning doimiy yo‘ldoshi bo‘lgan bir hodisa bor. Bu ilhom degan hodisadir. Shuning uchun ham aksariyat odamlar o‘z hayotini ma’lum maromga solib, ruhiyatini ongli idora qiladi. Afsuski, ayrim kishilarda bu garmoniyani his etish va boshqarish qobiliyati sust bo‘ladi va ruhiy muammolar tufayli aziyat chekish ko‘pincha shu toifadagi odamlarda ko‘proq kuzatiladi. Eng qiziqarlisi shundaki, ko‘pincha bu kabi muammolarning asosiy sababi insondagi ijodkorlik va uning o‘z vaqtida ro‘yobga chiqarish imkoniyati bilan bog‘liq bo‘lar ekan. Demaq ijodkorlikni ro‘yobga chiqarish orqali inson ruhiyatidagi tashqi va ichki olam garmoniyasiga erishish mumkin degan xulosa chiqarsak mubolag‘a bo‘lmaydi. Psixologiyada ijodiylik birinchi marta 1950 yilda ilmiy o‘rganilgan. Mashhur amerikalik psixolog Dj.Gilford o‘sha yili Amerika psixolog assosiasiyasining

kongressida ijodiy tafakkur va ijodiy jarayon haqida ma'ruza qilib bu sohaga olimlarning diqqatini tortdi. Dj.Gilford bu sohada chuqur izlanishlar olib borib, 1967 yilda kreativ tafakkurni shakllantiruvchi va aniqlovchi testlar batareyasini ishlab chiqdi. Ijodiy tafakkur bu kishilardagi aqliy faoliyatning asosiy xarakteristikasi bo'lib, tafakkur individualligini xarakterlaydi. Dj.Gilfordning intellekt modeli uch o'lchovli o'zgarib turuvchi uzunlikka ega bo'lgan to'g'ri burchakli geometrik shakldir. Bunda barcha aqliy qobiliyat va harakatlar uch o'lchovga binoan muayyan shaklga keltiradi.

Bular: a) aqliy jarayonlar; b) aqliy qoniqish; v) aqliy natijalardir.

Dj.Gilford farazicha aqliy jarayonlarga quyidagilar kiradi:

1. Bilish qobiliyati (kashfiyot yoki nimanidir e'tirof etish).
2. Xotira (nima olinayotgan bo'lsa, o'shani esda saqlash).
3. Divergent tafakkur (turli yechimlarni izlashda va boshqarishdagi tafakkur).
4. Konvergent tafakkur (yechimini faqat bitta yagona yo'l bilan topish).
5. Baholash (yaxshi va eng to'g'ri fikrlash, yaqinlashish aynan o'xshash va boshqalar bilan belgilanadi).

Dj.Gilford tajribasining asosida quyidagilarga diqqatni qaratadi. Tajriba maqsadi: shaxsning ijodiy (kreativ) tafakkur xususiyatlarini aniqlash. Tajriba materiali: Dj.Gilford kreativ tafakkurni o'rganishga mo'ljallangan 4 ta sub'testi. Qalam, qog'oz va toshiriqda ko'rsatilgan materiallar. Sinaluvchiga ko'rsatma: "Quyida sizga har biri o'z ichiga 3 tadan sub'testni o'z ichiga olgan 4 ta test beriladi. Har bir testni ko'rsatmaga binoan bajaring". Dj.Gilford tomonidan tafakkur kreativligiga taalluqli bo'lgan bir nechta testlar berilgan. Quyida shulardan 1 tasini keltiramiz:

Rasmlar interpretatsiyasi: Bu nima? Bunda sinaluvchiga 3 ta rasm havola etiladi, har birida ma'lum shakl ifodalangan. Sinaluvchiga 2-3 minut vaqt beriladi. Shu vaqt ichida sinaluvchi shakl nima ekanligini ifodalovchi javoblarni imkon darajada ko'proq topishi kerak bo'ladi kreativ o'quvchilar murosasiz, ziddiyatli, yuqori emosionallikni namoyon etadilar. Ular ichki muammolarni mustaqil xal qiladilar. Odatiy fikrlovchi kishilar yuqori emosionallikni namoyon etmaydilar va ma'qullamaydilar. O'zlarining kelajakdagi kasblari xaqidagi savollarga javob berar ekan, kreativ fikrlovchilar mexnatning ijodiy tabiati, yuqori yutuqlarga intilish va noan'anaviy faoliyat turlariga jalb qilish xaqida gapirishadi. Ular ijtimoiy taraqqiyotga xissa qo'shishni, yangi narsalarni yaratishni, odamlar ongidan ustunlik va xokimiyatga ega bo'lishni xoxlashadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda o'quvchilarni xar tomonlama kamol toptirish ongi va xulk-atvorini shakllantirishda ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga aloxida ahamiyat berish davr talabidir. Aytib o'tilganidek barcha shaxslarda kreativlik sifatlari o'z-o'zidan

rivojlanmaydi. Shunga ko'ra kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo'llari mavjud. Birinchi yo'l - kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish. Bunda asosiy urg'u kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish asosiy e'tibor markazida bo'lib, kishilar fe'llar yordamida kreativ xarakterdagi harakatlarning mohiyatini ifodalashga yo'naltiriladi. Xususan, o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmasini samarali shakllantirish maqsadida ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur fe'llarning bo'lishiga e'tibor qaratadilar. Bu holat misollar bilan tushuntirilsa, «Bilish jarayonlari va psixik xususiyatlar o'rtasidagi aloqadorlikni tasniflab bering» mazmunidagi nazorat savollarini berish ularda kreativlikni shakllantirmaydi.

Zero, savol tarkibidagi «ta'riflab bering» tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra «mavjud bilimlaringizni birma-bir aytib o'ting» deyish bilan teng. Nazorat savollarini berishda o'quvchilarni fikrlashga undovchi so'z (fe'l)lardan foydalanish ularning kreativ fikrlashlarini osonlashtiradi. Shu sababli o'quvchilarda kreativ sifatlarini shakllantirishning birinchi yo'liga ko'ra psixologlar turli, antiqa, noan'anaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi so'z (fe'l)lardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Masalan, «bog'liqlikni toping», «yarating», «bashorat qiling», «fikrni mantiqan bayon eting», «tasavvur qiling» kabi so'z

(fe'l)lardan foydalanish amaliy jihatdan samarali sanaladi. Birinchi yo'lni qo'llash - shaxsda kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda «Psixologik kreativlik xaritasi»dan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchi yo'l - amaliy kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Shaxsda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko'rsatmali metod va usullardan foydalanish mumkin. Bu o'rinda shaxsda interfaollik va kirishimlilikni rivojlantirmaydi. Uchinchi yo'l - kreativ faoliyat jarayonlarini tashkil etish. Mazkur yo'lda shaxsni muammoni yechish va innovasion g'oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg'u beriladi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo'llanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi. Masalan, «Bilish jarayonlari va psixik xususiyatlar o'rtasidagi aloqadorlikni tasniflab bering» topshirig'ini bajarar ekanlar, psixologiya fanlarida bilish jarayonlari bilan psixik xususitalarning bog'liq jihatlariva muammolarni tahlil qiladilar. Natijada ushbu jarayonda ko'p tomonlama fikrlash, mushohada yuritish ruy beradi.

To'rtinchi yo'l - kreativ mahsulot (ishlanma) lardan foydalanish. Bu yo'lni tutishda shaxsga « Bilish jarayonlari va psixik xususiyatlar o'rtasidagi aloqadorlikni tasniflab bering » mavzusida Power Point dasturi yoki multimedia vositalari yordamida takdimotni yaratish topshirig'ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida shaxsda kreativ fikrlash ko'nikmalari faol rivojlanadi. Bu borada bir qancha testlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Predmetlardan foydalanish testi. Ushbu testda sinaluvchiga bir nechta real predmetlar havola etilib ulardan

foydalanish usullari haqida yozma javob berish taklif etiladi. Masalan: 1) bo'sh shisha idish 2) katta mix

3) daraxt apilkasi. Havola etilgan predmetlarning har bir guruhining tavsifi uchun 2 minutdan vaqt ajratiladi. Sinaluvchi ajratilgan vaqt oralig'ida imkon darajada ushbu predmetlardan foydalanish usullarini ko'proq keltirishga harakat qilishi lozim. Masalan:

1) Bo'sh shisha idish: uyning devorini ko'tarishda, sindirib lupa qilishda, hamir yoyishda, pul yoki tanga saqlashda, gul uchun vaza, qurol sifatida, musiqa chiqaruvchi instrument sifatida va hokazo.

2) Mix-uchli predmet sifatida, silarni aylantirishda, grabl uchun tish yasashda, ildirg'ich yasash maqsadida, shifer qoqishda, qalin yog'ochlarni birlashtirishda va hokazo.

3) Daraxt apilkasi (qirindi) –yonilg'i, uy pechkasi uchun o'tin, spirt uchun xom ashyo, polni tozalash maqsadida, o'yinchoq yasashda, dengiz yuzidagi neftni yo'qotishda, sport o'yinlarida, sirkda va hokazolar. Ushbu test natijalari ham o'ziga xos tarzda tahlil qilinib, eng original, qimmatli fikr eglari alohida aniqlanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish joizki, Shaxs kreativligining shakllanishi va uning ijtimoiy psixologik ahamiyatini aniqlash va uni rivojlantirishning optimal yo'llarini ishlab chiqish o'quvchi yoshlarni eng original, qimmatli fikr eglari muximi kreativlik xususiyatlari shakllanishiga mustahkam asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Turdieva M. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008. - 38-42-b
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). –Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.
3. Bashina T.F., Иьн Ye.P. Psixologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti. – CPb.: Piter, 2009. – s.
4. 2022.Алексеев, А.Ю. (2013) Проблема творчества в исследованиях искусственного интеллекта. Москва: "Реабилитация".
5. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4
6. Тест креативности Торранса // http://www.miu.by/kaf_new/mpp/150.pdf.
7. Kamolova, SH. O'., & Munarova, R. O'. (2010). Urovni sovershenstvo lichnosti. *Issledovatel nauchniy jurnal.*–Qozog'iston, 5(49), 100-105.
8. Kamolova, S., & Amanxonova, Y. (2022). O'quvchilar tafakkur jarayonlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii*, 2(6).

9. Каршибаева Г. А., Ибайдуллаева У.Р.Оила психологияси.Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент.2022 й.
- 10.Каршибаева Г.А., Абдуасулов Р.А. Психологик маслаҳат. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент.2022 й.
- 11.Yaxshiyeva, M. SH., Kamolova, SH., Eshonkulov, E. S., Jumartova, U. U., & Urazoliyev, X. A. (2015). Formirovaniye nauchnogo mirovozzreniya studentov. In *Aktualniye zadachi pedagogiki* (pp. 184-186).

